Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda 1 mln gektarga yaqin maydonda o’rmon barpo etildi

Hozirgi kunda Orol dengizining qurib ketishi tufayli jami 5 mln gektar maydon, shundan taxminan 2,5-2,7 mln gektar maydon O’zbekiston Respublikasi hududida, 2,5-3,0 mln gektar Qozog’iston Respublikasi hududida tuzli-qum sahrosi hosil bo’lgan. Har yili Orol dengizining qurigan tubidan havoga 90-100 million tonnadan ortiq tuz, chang va qum ko’tarilib atrof tabiiy muhitga jiddiy zarar yetkazishi kuzatilmoqda.

Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda “yashil qoplamalar” — himoya o’rmonzorlari barpo etish, ekologik muhitni barqarorlashtirish hamda tabiiy muvozanatni tiklash maqsadida O’zbekiston Respublikasi O’rmon xo’jaligi davlat qo’mitasi tomonidan bir qator tizimli ishlar olib borilmoqda. O’rmonchilar tomonidan 1985-yillardan boshlab har yili 14-20 ming gektarda o’rmon melioratsiya ishlari olib borilib, 2017-yilgacha qariyib 600 ming gektarga yaqin saksovulzorlar barpo etilgan bo’lsa, 2018-yildan boshlab esa mutloqo yangicha bosqichga ko’tarilib, misli ko’rilmagan ishlar amalga oshirilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda “yashil qoplamalar” — himoya o’rmonzorlari barpo etishning qo’llab-quvvatlanishi va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi “Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda “yashil qoplamalar” — himoya o’rmonzorlari barpo etish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi O’rmon xo’jaligi davlat qo’mitasi tomonidan 1 mln gektar maydonda tuproqning strukturasiga asoslanib saksovul, yulg’un, qandim, qoraburoq va boshqa cho’l o’simliklarining ko’chatlari va urug’lari ekildi.

Joriy yil iyun oyida Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda 2019-yil qish va 2020-yil bahor mavsumida mobaynida 1 mln gektar maydonda ekilgan o’rmonda O’zbekiston Respublikasi O’rmon xo’jaligi davlat qo’mitasi boshchiligida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti, Kadastr qo’mitasi, O’simliklar himoyasi instituti hamkorligida 45 kishidan tashkil topgan 12 ta guruh ishtirokida monitoring o’tkazildi.

Monitoring natijalari asosida Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda olib borilgan amaliy ishlarning ijobiy va salbiy ko’rsatkichlari tahlil qilinib kelgusi mavsumda bajariladigan vazifalar belgilab olindi.